

## LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI

**Abdullayev Zafarbek Safibullayevich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Namangan davlat universiteti, Menejment kafedrası

ORCID: 0009-0000-2685-5398

E:mail: [zafarbek.abdullayev555@gmail.com](mailto:zafarbek.abdullayev555@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Latviyada soliq to'lovchilar reytingi tizimi joriy etilganining huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslari hamda ushbu tizimning fiskal intizom, soliq shaffofligi va halol tadbirkorlikni rag'batlantirishdagi amaliy samarasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda reyting mezonlari, algoritmi, toifalari, xalqaro baholovchilar fikri va jamoatchilik munosabatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston uchun implementatsion tavsiyalar ishlab chiqilgan. Reyting tizimi soliq ma'muriyatchiligida motivatsion vosita sifatida o'zini oqlamoqda.

**Kalit so'zlar:** soliq to'lovchilar reytingi, fiskal intizom, Latviya, soliq boshqaruvi, reyting tizimi, shaffoflik, xavf mezonlari

### Аннотация

В статье исследуется внедрённая в Латвии система рейтинга налогоплательщиков: её правовые основы, технический механизм функционирования и практическое влияние на налоговую дисциплину. Рассмотрены критерии оценки, категории рейтингов, восприятие со стороны общества и бизнеса, а также международные оценки. На основе анализа представлены предложения по применению опыта в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** рейтинг налогоплательщиков, налоговая дисциплина, Латвия, налоговое администрирование, прозрачность, поведение налогоплательщика

### Abstract

This article analyzes the legal, institutional, and technical framework of Latvia's taxpayer rating system and its practical impact on fiscal discipline, tax transparency, and honest business promotion. The study highlights the system's rating criteria, categories, technical algorithm, and international assessments. The findings present applicable policy recommendations for Uzbekistan's tax administration reform.

**Keywords:** taxpayer rating, fiscal discipline, Latvia, tax administration, transparency, risk indicators, public scoring

### KIRISH

Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini ta'minlashda fiskal intizom, shaffoflik va soliq to'lovchilarning xulq-atvorini tartibga solish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyotning oldini olish, soliqlardan bo'yin tovlanish holatlarini qisqartirish va vijdonli tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida zamonaviy mexanizmlarni joriy etish davlatlarning ustuvor vazifasiga aylangan. Bunday mexanizmlardan biri sifatida

solliq to'lovchilarni reyting asosida baholash tizimi ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Latviya Respublikasida ham amaliyotga joriy etilmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan Latviyada joriy etilgan reyting tizimining mezonlari, texnik ishlash mexanizmi, normativ-huquqiy asoslari va amaliy natijalarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida reyting tizimining tashkiliy modeli, baholash algoritmi, statistika asosida amaliy natijalari, jamoatchilik va biznes vakillarining unga munosabati tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar – OECD, IOTA, Yevropa Komissiyasi tomonidan berilgan baholar ham alohida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari solliq boshqaruvini takomillashtirish, fiskal intizomni mustahkamlash va halol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston va boshqa mamlakatlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Solliq to'lovchilarni reyting asosida baholash tizimi zamonaviy fiskal boshqaruvning innovatsion komponenti sifatida jahon moliyaviy-amaliyotida tobora keng qo'llanilmoqda. Ushbu bobda tadqiqot mavzusiga bevosita oid bo'lgan nazariy konsepsiyalar, xalqaro tajriba, normativ-huquqiy hujjatlar va Latviya Respublikasi misolidagi amaliy adabiyotlar tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Nazariy jihatdan solliq to'lovchilar reytingi tushunchasi quyidagi asoslarga tayanadi:

Fiskal xulq-atvor nazariyasi (tax compliance behavior), xususan Allingham va Sandmo (1972) tomonidan ishlab chiqilgan modelda solliq to'lovchi qarorlarini ehtimoliy jazolanish va foyda maksimallashtirish nuqtai nazaridan baholash tushuntirilgan. Unga ko'ra, solliq to'lashga intilish ko'p hollarda subyektiv xavf va manfaatlar nisbati bilan belgilanadi.

Reputatsion baholash va inson kapitali nazariyasi doirasida reytinglar ishonchlilikni oshiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi (Tirole, 1996; Becker, 1975).

Reyting va monitoring tizimlari orqali fiskal intizomni rag'batlantirish mexanizmlari James Alm (2012), Lars P. Feld va Bruno S. Frey (2007) tomonidan iqtisodiy-psixologik yondashuv orqali asoslangan.

Ushbu nazariy yondashuvlar Latviyada joriy etilgan tizimning metodologik negizini tushunishda muhim manbadir.

Xalqaro amaliyotda reyting asosidagi solliq nazorati tizimlari Yevropa Ittifoqi davlatlari, Osiyo (xususan, Xitoy), shuningdek, Rossiya va AQShda turli darajada joriy etilgan. Quyidagi manbalar xalqaro tajribani ochib beradi:

OECD (2024): "Tax Administration 2023" hisobotida ochiqlik, raqamlashuv va reyting orqali solliq intizomini oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Latviyaning rejalashtirilgan solliq islohotlari bu hujjatlarda yuqori baholangan.

European Commission Recovery and Resilience Plan – Latvia (2023): Ushbu hujjatga ko‘ra, Latviya reyting tizimini RRF (Recovery and Resilience Facility) islohoti doirasida, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash strategiyasi sifatida joriy qilgan.

IOTA (2024): Mintaqaviy soliq idoralari uyushmasi tomonidan Latviya reyting tizimi ochiqligi va algoritmik hisoblash tamoyillari bo‘yicha alohida e‘tirof etilgan.

World Bank (2022) hisobotida reytingga asoslangan fiskal monitoringning O‘zbekistonda joriy etilishi imkoniyatlari haqida bashoratlar keltirilgan.

Bu manbalar reyting mexanizmini shaffoflik, xatarlarni oldindan aniqlash va soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish kontekstida baholaydi.

Latviyada reyting tizimi huquqiy asosini quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi:

“Par nodokļiem un nodevām” qonuni (Soliqlar va to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun)ga 2023-yilda kiritilgan o‘zgartirishlar (18-moddaga 36-band) – VIDga reyting shakllantirish va uni e‘lon qilish vakolati berilgan.

VIDning rasmiy metodikasi (2023–2024 yillar): bu hujjatlarda reyting mezonlari, toifalari va algoritmlar izchil bayon qilingan. Har chorakda yangilanadigan tahlil natijalari esa kompaniyalar reytingini jamoatchilikka e‘lon qilish tartibini belgilaydi.

Latviyaning Moliya vazirligi tomonidan 2021–2022-yillarda ishlab chiqilgan Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash milliy dasturi, ushbu tizimning siyosiy asoslarini tashkil qiladi.

VID ochiq ma‘lumotlar portali orqali 2024-yil 1-chorakda 137 066 ta kompaniya reyting bahosi olgan, shulardan 18% — “A”, 43% — “B”, 6,6% — “C”, 3% — “J” va 29,5% — “N” toifalariga kirgani qayd etilgan. Ushbu statistik ko‘rsatkichlar soliq madaniyatining oshganligini va noaktiv korxonalar ulushining muammo ekanligini ko‘rsatadi.

Smite-Roķe (2024) tomonidan olib borilgan rasmiy intervyularda reytingning profilaktik va rag‘batlantiruvchi funksiyalari ta‘kidlanadi.

Ba‘zi yuridik va iqtisodiy ekspertlar (Delna.lv, Latvian Transparency) reytingning ommaga e‘lon qilinishi shaxsiy ma‘lumotlarga oid xavf tug‘dirishi mumkinligini ta‘kidlagan. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun reyting mezonlarining moslashuvchan emasligi (ya‘ni xodim bo‘lmasa — salbiy baho berilishi) bo‘yicha tanqidiy qarashlar bildirilgan.

Biroq bularning aksariyati tizimning ilk bosqichida shakllangan muhokamalar bo‘lib, amaliyotda reyting shaffoflik va fiskal madaniyatni oshiruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Latviyada soliq to‘lovchilar reytingi tizimi ilmiy, institutsional va texnologik jihatdan asoslangan, xalqaro ilg‘or tajribalarga uyg‘un tarzda ishlab chiqilgan tizimdir. U nafaqat fiskal nazoratning yangi shakli, balki

davlat–biznes–jamoatchilik o‘rtasidagi ochiq muloqotni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Latviyada soliq to‘lovchilar reytingi tizimining huquqiy asoslari, baholash mezonlari, texnik ishlash algoritmi va amaliy natijalari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotda deskriptiv (ta‘riflovchi), huquqiy-analitik va qiyosiy metodlar qo‘llanildi. Reyting tizimining tarkibi, J–N–C–B–A toifalariga ajratish mexanizmi, baholashda ishtirok etuvchi 6 ta mezon guruhi tahlil qilindi.

Ma‘lumotlar manbai sifatida VID (Latviya Davlat daromadlari xizmati) ochiq bazalari, 2024-yilgi statistik hisobotlar, shuningdek, OECD, Yevropa Komissiyasi va IOTA kabi xalqaro tashkilotlarning hujjatlari asos qilib olindi. Tahlilda grafik va strukturaviy baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari orqali reyting tizimining fiskal intizomga, soliq shaffofligiga va davlat–biznes munosabatlariga ko‘rsatgan ta‘siri aniqlab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Latviyada soliq to‘lovchilar reytingi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilgan bo‘lib, uning paydo bo‘lishiga mamlakatdagi soliq intizomini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish zaruratlari asosiy sabab bo‘lgan.

Latviyada soliq to‘lovchilarning reytingi tizimi qonuniy jihatdan 2023-yilda qabul qilingan qonun o‘zgartirishlari bilan mustahkamlangan. Xususan, “Par nodokļiem un nodevām” (Soliqlar va to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun) ga kiritilgan o‘zgartirishlar orqali Davlat daromadlari xizmati (latv. Valsts ieņēmumu dienests, VID) ga soliq to‘lovchilar reytingini joriy etish va uni e‘lon qilish vakolati berildi (1-rasm)<sup>1</sup>. Mazkur qonunning 18-moddasiga kiritilgan 36-bandga muvofiq, VID har bir kompaniya uchun soliq majburiyatlarini bajarish darajasini aks ettiruvchi umumiy reyting bahosini shakllantirib, uni belgilangan tartibda oshkor qilmoqda.

Amaliyotda bu tizimni joriy etish 2018-yilda boshlangan edi. O‘sha vaqtdan beri VID ichki axborot tizimi orqali ayrim soliq to‘lovchilarga ularning soliq intizomi bahosi haqida ma‘lumot berib kelgan<sup>2</sup>. Biroq, o‘sha dastlabki reyting ma‘lumotlari faqat kompaniyaning o‘ziga ko‘rinardi va tizim asosan informativ xarakterga ega edi. 2023-yil 30-iyunda kuchga kirgan qonunchilikdagi tuzatishlar bilan reyting tizimi yangilanib, 2024-yildan boshlab to‘liq joriy etildi. Endilikda, ushbu reytingning umumiy bahosi qonun asosida ommaga ham oshkor qilinadigan bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar soliq to‘lovchilarning reyting bo‘yicha o‘z huquqlarini ham belgiladi. Masalan, har bir

<sup>1</sup> <https://www.vid.gov.lv/lv/nodoklu-maksataja-reitings>

<sup>2</sup> <https://kpmg.com/lv/lv/home/insights/2023/07/izmainas-nodoklu-maksataju-reitinga-sistema-un-nodoklu-aministracijas-kontroles-administracijas-procesos.html#:~:text=Kop%C5%A1%202018,no%20Padzi%C4%BCin%C4%81t%C4%81s%20sadarb%C4%ABbas%20programmas%20darb%C4%ABbas>

solliq to'lovchi Elektron deklaratsiya tizimi (EDS) orqali o'z reytingini va uni shakllantirishda foydalanilgan ko'rsatkichlar tafsilotlarini bilish huquqiga ega bo'ldi<sup>1</sup>.



**1-rasm. Latviya Davlat daromadlari xizmati (Valsts ieņēmumu dienests, VID)<sup>2</sup>**

Yuqoridagi huquqiy asoslar tufayli, Latviyada solliq to'lovchilar reytingi tizimi rasmiy ravishda davlat solliqlar siyosatining bir qismiga aylangan. Bu tizimning joriy qilinishi, shuningdek, Yevropa Ittifoqining tiklanish jamg'armasi doirasidagi islohot choralaridan biri sifatida ham e'tirof etiladi. Zero, 2021–2022-yillarda Latviya hukumatining “yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash” milliy ish rejasida mazkur reyting tizimini joriy etish va solliq nazoratlarini optimallashtirish ko'zda tutilgan edi<sup>3</sup>. Shu tariqa, reyting tizimi qonunchilik va strategik dasturlarga muvofiq ravishda joriy etilib, VID tomonidan amalga oshirilmoqda.

Latviya solliq xizmati barcha solliq to'lovchi kompaniyalarni besh xil reyting toifasida baholaydi: “A”, “B”, “C”, “N” va “J”. Ushbu harfli toifalar kompaniyaning solliq majburiyatlariga muvofiqlik darajasini ifodalaydi<sup>4</sup>. Quyida ushbu reyting toifalarining ma'nosi keltirilgan (1-jadval).

<sup>1</sup><https://lvportals.lv/skaidrojumi/359220-kas-ietekme-nodokla-maksataju-reitingu-un-kadas-prieksrocibas-sagaida-agrupas-uznemumus-2024#:~:text=groz%C4%ABjumu%20normas%2C%20ar%20kur%C4%81m%20noteiktas,nodok%C4%BCu%20maks%C4%81t%C4%81ja%20reitinga%20kop%C4%93jo%20nov%C4%93rt%C4%93jumu>

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>3</sup>[https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CONSIL:ST\\_15548\\_2023\\_ADD\\_1#:~:text=including%20the%20adoption%20of%20a,work%20plan%20to%20restrain%20the](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CONSIL:ST_15548_2023_ADD_1#:~:text=including%20the%20adoption%20of%20a,work%20plan%20to%20restrain%20the)

<sup>4</sup><https://kpmg.com/lv/lv/home/insights/2023/07/izmainas-nodoklu-maksataju-reitinga-sistema-un-nodoklu-aministracijas-kontroles-administracijas-procesos.html#:~:text=Jaun%C4%81%20reitingu%20sist%C4%93ma%20b%C5%ABs%20pieejama,tikusi%20veidota%20ar%20%20pamatm%C4%93r%C4%B7iem>

**1-jadval**
**Latviyada soliq to'lovchilar reyting toifalari va ularning mazmuni<sup>1</sup>**

Reyting toifasi	Ma'nosi (Davlat daromadlari xizmati VID talqiniga ko'ra)
A	<b>Yaxshi muvofiqlik.</b> Kompaniyada soliq qonunchiligini buzish xavflari yo'q. Barcha soliq majburiyatlari o'z vaqtida va to'liq bajariladi.
B	<b>Muvofiqlikni yaxshilash zarur.</b> Kompaniya umumiy soliq majburiyatlarini bajarib keladi, ammo ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha kamchiliklar mavjud. Masalan, ba'zan deklaratsiyalarni kech topshirish yoki soliqlarni kech to'lash holatlari kuzatiladi.
C	<b>Muvofiqlik buzilishlari.</b> Kompaniya jiddiy soliq qonunbuzarliklariga yo'l qo'ygan. Masalan, soliq qonun buzilishi tufayli QQS (Qo'shilgan qiymat solig'i) to'lovchilari reyestrtdan chiqarib yuborilgan yoki soliq huquqbuzarliklari sabab VID tashabbusi bilan uning xo'jalik faoliyati to'xtatilgan. Bunday kompaniyalarning ishonchliligi past deb baholanadi; agar faoliyati to'xtatilgan bo'lsa, qonun bo'yicha ular bilan hech qanday bitim tuzish mumkin emas.
N	<b>Faol emas (noaktiv).</b> VID ma'lumotlariga ko'ra, kompaniya iqtisodiy faoliyat olib bormayapti. Ya'ni, kamida oxirgi 6 oy davomida soliq hisoboti va deklaratsiyalarida deyarli hech qanday aylanma ko'rsatilmagan, xodimlar mavjud emas yoki ular uchun ish haqi deklaratsiya qilinmagan. Ish faoliyatini boshlashda bunday kompaniya bilan hamkorlik qilishdan avval, uning faoliyatsizligi inobatga olinishi lozim.
J	<b>Yangi ro'yxatdan o'tgan.</b> Kompaniya oxirgi olti oy ichida tashkil etilgan yangi soliq to'lovchi hisoblanadi. Hali bunday korxonada o'zini amaliyotda ko'rsatishga ulgurmagani bo'lsa-da, "yangi boshlanayotgan va vijdonan ish yuritishga intilayotgan har qanday tashabbus tahsinga loyiq" deb e'tirof etiladi.

Yuqoridagi reytinglar kompaniyaning soliq intizomi va xatarlar darajasini ko'rsatuvchi umumiy bahodir. Masalan, A reyting eng namunalari soliq intizomini, B reyting ayrim zaif tomonlar borligini, C reyting esa jiddiy muammolar mavjudligini bildiradi. N guruhi faoliyat olib bormayotgan (yoki faoliyati juda sust) subyektlarni ajratib ko'rsatsa, J guruhi yangi tashkil etilgan, o'z tarixiga ega bo'lmagan korxonalarni ifodalaydi. Bu reyting bahosi kompaniyaning soliq majburiyatlarini bajarish intizomi xulosa tarzida jamlanadi va boshqa manfaatdor tomonlarga ham kompaniya haqida muayyan ma'lumot beradi (masalan, potensial biznes hamkorlar reytingga qarab kompaniya ishonchliligini baholashlari mumkin).

VID ushbu harfli baholarni berishda oldindan belgilangan ko'rsatkichlar to'plamiga tayangan holda har bir kompaniyani tahlil qiladi. Jami oltita asosiy ko'rsatkichlar (mezonlar) guruhi mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Ro'yxatdan o'tganlik va registratsiya ma'lumotlari. Kompaniyaning hozirgi holati (bankrotlik jarayoni bor-yo'qligi, faoliyatining VID tomonidan to'xtatilgani yoki yo'qligi, QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan chiqarilgani yoki yo'qligi) tekshiriladi. Shuningdek, kompaniya rasmiylarining (rahbarlarining) soliq sohasidagi oldingi faoliyati va tarixiy muvofiqlik ko'rsatkichlari ham inobatga olinadi.

2. Deklaratsiya va hisobotlarni o'z vaqtida topshirish. Soliq deklaratsiyalari va boshqa majburiy hisobotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish-intizomi baholanadi.

3. Soliq to'lovlari. Soliqlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash intizomi muhim mezondir. Agar qarzdorlik yuzaga kelgan bo'lsa, kompaniyaning o'z

<sup>1</sup> <https://www.vid.gov.lv/en/taxpayer-rating-system#:~:text=A>

tashabbusi bilan VIDga murojaat qilib, qarzni bo‘lib to‘lash jadvalini tuzgani kabi omillar ijobiy holat sifatida e‘tiborga olinishi mumkin.

4. Jarimalar va soliq tekshiruv natijalari. VID nazorat tadbirlari (audit, tekshiruv) davomida aniqlangan qo‘shimcha soliqlar va qo‘llangan jarimalar miqdori baholanadi. Xususan, soliq nazorati natijasida hisoblangan qo‘shimcha soliq summasi kompaniyaning umumiy to‘lagan soliqlariga nisbatan qanchalik ulushga egaligi, jarimalar qanchalik jiddiy huquqbuzarlikni ko‘rsatishi kabi jihatlar tahlil qilinadi. Vijdonan ishlaydigan korxonalarda ham ayrim xatolar tufayli kichik jarimalar bo‘lishi mumkin, lekin tizim jiddiy soliq qonun buzilishlarini alohida ajratib ko‘rsatadi.

5. Ish haqi darajasi va “konvertatsiya” xavfi. Kompaniyada to‘lanayotgan o‘rtacha ish haqi darajasi tegishli tarmoq va hudud bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi. Agar kompaniya ishchilarga g‘ayrioddiy ravishda juda past ish haqi to‘layotgan bo‘lsa, bu yashirin “konvertida” (rasmiy bo‘lmagan) ish haqi berilishi xavfidan dalolat berishi mumkin va reytingni pasaytiradi. Shu bilan birga, agar biror oydagi past ish haqi haqiqatan xodimlarning ta‘tili yoki boshqa sabablarga ko‘ra bo‘lsa, bunday holatlar hisobga olinmaydi.

6. Soliq deklaratsiyalaridagi xavfli tendensiyalar. VIDning o‘ziga xos xavf tahlili natijasida aniqlanadigan turli soliq xavflari ham reytingga ta‘sir qiladi. Masalan, QQS bo‘yicha tranzaksiyalar tahlilida gumonli holatlar ya‘ni kompaniyaning savdo operatsiyalari aksariyat ichki bozor bilan bo‘lsa-yu, lekin byudjetga juda kam QQS to‘lanayotgani; yoki kompaniya asosan Yevroittifoq ichidagi tovar aylanmasini deklaratsiya qilib, o‘zi vositachidek ko‘rinayotgani yoki uning xaridorlari o‘z deklaratsiyalarida ushbu kompaniyadan katta xaridlarni ko‘rsatgan, lekin u o‘zi bu savdolarni deklaratsiya qilmagan va h.k. Bularning barchasi maxsus xavf indikatorlari sifatida baholanib, B reytingni keltirib chiqaradi. Shuningdek, muddati o‘tgan yoki topshirilmagan soliq deklaratsiyalari mavjudligi, bank hisob raqamlarining yo‘qligi, soliq qarzlarni undirish choralari qo‘llanilgani kabi omillar ham shu guruhga kiradi va kompaniyani B reytingga tushib qoladi.

Yuqoridagi oltita mezon bo‘yicha har bir kompaniya tahlil qilinib, umumiy reyting bahosiga ega bo‘ladi[6]. Ushbu baholash kompaniyaning soliq majburiyatlariga qancha vijdonan rioya qilayotganini kompleks ravishda ko‘rsatadi. Reytingning asosiy vazifasi – soliq to‘lovchilarga o‘z holatini anglash va yaxshilashga yordam berishdir. Masalan, har bir kompaniya o‘zining EDS profilida reyting ko‘rsatkichlarining batafsil tahlilini ko‘rish mumkin. Bu yerda mezonlar bo‘yicha “yashil”, “sariq” yoki “qizil” signal ko‘rinishida baholar ko‘rsatiladi. Yashil indikator – mezon bo‘yicha talablar bajarilganini, sariq – e‘tibor qaratish va yaxshilash lozimligini, qizil esa – jiddiy muammo borligini bildiradi. Shu tariqa, reyting tizimi kompaniyalarga “qaysi jihatlar ustida ishlash kerakligi” bo‘yicha yo‘l xaritasi vazifasini o‘tashi ko‘zda tutilgan.

Reytingni hisoblash algoritmi oldindan belgilangan qoidalarga asoslanadi. VID har chorakda (yiliga kamida to‘rt marta) barcha kompaniyalar bo‘yicha mavjud ma‘lumotlarni tahlil qilib, reytinglarni qayta ko‘rib chiqadi. Baholash jarayoni bosqichma-bosqich istisno qilish usuli bilan amalga oshiriladi. Ya‘ni, avvalo ma‘lum

toifaga mansub kompaniyalar ajratib olinadi, soʻng qolganlariga navbatdagi mezonlar qoʻllanadi. Yakunda har bir kompaniyaga faqat bitta (eng mos) reyting toifasi tayinlanadi.

Latviyada soliq toʻlovchilar reytingini shakllantirish jarayoni qatʼiy belgilangan qoidalarga asoslangan boʻlib, Davlat daromadlari xizmati (VID) tomonidan yaratilgan algoritm orqali amalga oshiriladi. Ushbu algoritm kompaniyani baholashda mezonlar boʻyicha izchil va bosqichma-bosqich tahlil qilishni nazarda tutadi. Quyida reyting belgilash tartibining asosiy bosqichlari izohlanadi.

1-bosqichda yangi kompaniyalar (J) ajratib olinadi. Agar kompaniya reyting aniqlanayotgan sanadan oldinroq olti oydan kam vaqt muqaddam roʻyxatga olingan boʻlsa, unga avtomatik ravishda J reyting beriladi. Yangi korxonalariga hozircha boshqa xavf mezonlari qoʻllanmaydi. Agar kompaniya reyting sanasidan keyin roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa (yaʼni, juda yangi boʻlsa), u ushbu davr uchun umuman reyting olmaydi va keyingi chorakda baholanadi.

2-bosqichda faol boʻlmagan kompaniyalar (N) ajratiladi. Agar kompaniya soʻnggi 6 oy ichida deyarli iqtisodiy faollik koʻrsatmagan boʻlsa, unga N reyting beriladi. VID buni aniqlash uchun quyidagi mezonlarga qaraydi yaʼni, soʻnggi yarim yildagi jami deklaratsiyalangan soliqlar summasi 750 yevrodan oshmagan boʻlsa va bir vaqtda quyidagi holatlardan biri mavjud boʻlsa (a) kompaniya iqtisodiy faoliyatsizlik tufayli QQS reystridan chiqarilgan yoki (b) xodimlar boʻyicha hech qanday ish haqi deklaratsiyasi yoʻq va davlat byudjetiga toʻlangan soliqlar 150 yevrodan kam boʻlishi boʻyicha tahlil qiladi. Agar kompaniya shu “noaktiv” toifaga tushsa, unga boshqa xavf indikatorlari qoʻllanilmaydi va reytingi “N” deb belgilanadi.

3-bosqichda jiddiy qonunbuzarliklari boʻlgan kompaniyalar (C) ajratiladi. Agar kompaniyaning xoʻjalik faoliyati VID tomonidan soliq qonunbuzarliklari sabab toʻxtatilgan boʻlsa yoki u soliq sohasidagi qoidabuzarliklar tufayli VID tashabbusi bilan QQS toʻlovchilar reystridan chiqarilgan boʻlsa, bunday kompaniya darhol C reyting oladi. Bu toifadagi subyektlar eng yuqori xavfli deb koʻrilib, boshqa mezonlar masalan, ish haqi darajasi yoki boshqalar inobatga olinmaydi, chunki allaqachon katta qonunbuzarlik aniqlangan. Albatta, kompaniya oʻz profilida boshqa indikatorlarda ham qanday kamchiliklar borligini koʻrishi mumkin, lekin ular umumiy reyting bahosiga qoʻshimcha taʼsir qilmaydi.

4-bosqichda muayyan xavf omillari bor kompaniyalar (B) ajratiladi. Yuqoridagi J, N, C guruhlariga kirmagan kompaniyalar orasida, agar birorta boʻlsa ham sezilarli soliq xavfi aniqlangan boʻlsa, bunday kompaniyalarga B reyting beriladi. “Sezilarli soliq xavfi” deganda, yuqorida sanab oʻtilgan oltita mezon boʻyicha qizil signal beruvchi holatlardan birortasining mavjudligi tushuniladi. Masalan, soliq qarzi yoki agar kompaniyaning oxirgi oy yakunidagi soliq qarzi 15 000 yevrodan oshsa yoki uning umumiy toʻlangan soliqlariga nisbatan qarz ulushi yuqori darajada boʻlsa, bu jiddiy xavf belgisi sifatida B guruhiga tushishiga sabab boʻladi. Yoki qarzni boʻlib toʻlash jadvali mavjud boʻlsa-yu, ammo uning atigi <70% qismi toʻlangan boʻlsa bu ham xavf indikatoridir. Ish haqi boʻyicha xavflar boʻyicha, agar kompaniyada oʻrtacha ish haqi davlat belgilagan eng kam miqdordan ham past boʻlsa yoki tarmoq/regional

o'rtachaning 50%idan past bo'lsa bu "konvertatsiya" (norasmiy ish haqi) ehtimoli borligini ko'rsatadi va B reytingga olib keladi. Yoki ishchilar mavjud bo'lsa-yu, lekin umuman ish haqi deklaratsiya qilinmagan bo'lsa (ayniqsa, qurilish yoki taksi kabi sohalarda faoliyat yuritib, lekin ish haqini ko'rsatmagan bo'lsa) bu ham jiddiy xavf sanaladi. QQS bo'yicha xavf ko'rsatkichlari ham B guruhiga tushishga sabab bo'ladi. Masalan, kompaniya o'z operatsiyalarida "riskli kontragentlar" bilan ishlagan ya'ni, uning yetkazib beruvchilari keyinchalik soliq qonunbuzarliklari uchun QQS reyestridan chiqarilgan bo'lsa yoki kompaniya asosan Latviyada savdo qilsa-da, deyarli QQS to'lamayotgan bo'lsa; yoki kompaniya bir necha yil davomida doimiy ravishda byudjetdan QQS qaytarib olgan holda, deyarli hech qanday sotuv amalga oshirmagan bo'lsa bularning barchasi QQS bo'yicha xatar belgilari hisoblanib B reytingni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ketma-ket ikki yoki undan ortiq soliq deklaratsiyasini topshirmaganlik, yillik moliyaviy hisobotni bermaganlik, hatto kompaniya rasmiylarining xalqaro sanksiyalarga tushganligi kabi omillar ham shu guruhga kiradi va kompaniyani B reytingga tushirishi mumkin

5-bosqich esa qolgan barcha kompaniyalarga A reyting beriladi. Agar kompaniya yuqoridagi J, N, C kategoriyalariga kirmasa va B reytingga sabab bo'ladigan hech qanday muhim xavf omiliga ega bo'lmasa, demak u A reytingli soliq to'lovchi hisoblanadi. Bunday kompaniya soliq qonunlariga to'liq rioya qiluvchi, tartibli soliq to'lovchi sifatida e'tirof etiladi. Albatta, ayrim kichik va ahamiyatsiz kamchiliklar A guruhidagi kompaniyalarda ham bo'lishi mumkin, lekin ular reytingga jiddiy ta'sir qilmaydi. Kompaniya o'z profilida bunday nisbatan arziyasiz xavf belgilarini ko'rish va istasa, bartaraf etishi mumkin.

Yuqoridagi algoritm har chorakda tatbiq etilib, reytinglar muntazam ravishda yangilanadi. Reytingni hisoblashda qo'llanilgan aniq davrlar va ma'lumotlar bo'yicha har bir kompaniya o'z EDS profilida batafsil ma'lumot ko'ra oladi. Shu tariqa, tizim avtomatlashtirilgan ravishda belgilangan qoidalar asosida ishlaydi va barcha subyektlarga teng mezonlar qo'llanadi.

Latviyada soliq to'lovchilar reytingi tizimini boshqarish va amalga oshirish uchun mas'ul organ Davlat daromadlari xizmati (VID)dir. Reyting bahosi bevosita VID tomonidan shakllantiriladi va e'lon qilinadi. VID har chorakda o'zining elektron ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlarni tahlil qilib, har bir kompaniyaning reytingini belgilaydi yoki yangilaydi. Shuningdek, reyting natijalarini VIDning ochiq ma'lumotlar bazasi orqali jamoatchilikka taqdim etadi.

Tizimning to'g'ri va xolis ishlashi ustidan nazorat asosan ichki darajada amalga oshiriladi. VID qonunchilikda belgilangan mezonlar va tartib-qoidalar asosida reytingni hisoblaydi hamda uning aniqligi uchun javobgar hisoblanadi. Mazkur tizim qonun asosida joriy qilinganligi sababli, VID reytingni aniqlashda barcha me'yoriy hujjatlarga rioya etishi shart. Soliq to'lovchilar esa o'z navbatida reyting shakllanishi jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun ayrim huquqlarga ega. Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir kompaniya o'ziga tegishli reyting ko'rsatkichlarini EDS tizimida batafsil ko'rish mumkin. Bu esa nazoratning bir shakli ya'ni, kompaniya agar

reytingi noto‘g‘ri hisoblangan deb hisoblasa, VIDga murojaat qilib o‘z ma‘lumotlarini aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tizim uchun javobgarlik yuridik nuqtai nazardan ham belgilangan. Reyting ma‘lumotlarini e‘lon qilish qonun bilan ruxsat etilgan bo‘lsa-da, VID ushbu ma‘lumotlarning maxfiylik va to‘g‘rilik talablariga javob berishini ta‘minlashi kerak. Misol uchun, kompaniya reytingi aniqlashda foydalanilgan ba‘zi ma‘lumotlar (agar ular milliy yoki xalqaro qonunchilikka ko‘ra oshkor etilishi taqiqlangan bo‘lsa) kompaniyaning o‘ziga ham berilmasligi mumkin. Bunday maxfiy risk axborotlari reytingga ta‘sir ko‘rsatmaydi va e‘lon qilinmaydi<sup>1</sup>. Lekin shunga qaramay, VID bunday axborotlarni ichki soliq nazorati faoliyatida (masalan, xavfli holatlarni tekshirishda) qo‘llashda davom etadi.

